



UDK: 37.037

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14651045>

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MILLIY MAFKURANING TA’LIMIY-TARBIYAVIY OMILLARI

ФАКТОРЫ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕОЛОГИИ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В ПАТРИОТИЧЕСКОМ ДУХЕ

FACTORS OF NATIONAL IDEOLOGY IN EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM

Jurayev Baxodir Xakimovich

O‘zbekiston milliy universiteti dotsenti, erkin tadqiqotchi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada navqiron yosh avlodni ma’naviy tarbiya hamda yangicha dunyoqarash asosida kamol toptirish, hozirgi taraqqiyot bosqichida nafaqat yoshlar, balki jamiyatimizning barcha a’zolari orasida vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini yanada mustaxkamlash muhim masala ekanligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, tarbiya, vatanparvarlik, sadoqat, milliy g‘oya, burch, muhabbat, hurmat, tafakkur.

Аннотация.

В данной статье освещены вопросы усиления работы по духовному воспитанию молодого поколения на основе нового мировоззрения, укреплению не только у молодёжи, но и у всех членов общества таких качеств как патриотизм, любовь и преданность к Родине.

Ключевые слова: духовность, воспитание, патриотизм, преданность, национальная идея, долг, любовь, уважение, мышление.

Abstract.

This article highlights the importance of nurturing the younger generation with spiritual education and a modern worldview, emphasizing the need to further strengthen the feelings of patriotism, love, and devotion to the homeland not only among the youth but also among all members of society in the current stage of development.

Key words: spirituality, education, patriotism, devotion, national idea, duty, love, respect, thinking.

Bugungi kunda yoshlarimiz ma’naviyati, ma’naviy tarbiyasi haqida so‘z borganda, navqiron avlodni yangicha dunyoqarash asosida kamol toptirishni unutmasligimiz lozim. Chunki hozirgi taraqqiyot bosqichida nafaqat yoshlar, balki jamiyatimizning barcha a’zolari orasida vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat va sadoqat tuyg‘ulari yanada mustaxkamlash muhim masala hisoblanadi. Bunday muqaddas tushunchalar odamlar tafakkuriga yurtimizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan o‘zgarish va yangilanishlar bilan birgalikda singib bormoqda. Milliy g‘oya va mafkura masalasi bu jarayonda asosiy omil sanaladi.

Milliy g‘oyani keng targ‘ib etish, uning asosiy tushuncha va tamoyillarini keng xalq ommasi ongiga singdirish maqsadida ko‘plab ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlar, lug‘at va risolalar, ma’ruza matnlari, voizlar uchun maxsus qo‘llanmalar va ko‘rgazmali vositalar tayyorlandi. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-ma’rifiy hayotimizdagi o‘zgarish va yangiliklar, bu borada ko‘pchilikni o‘ylantirayotgan masalalar muntazam ravishda yoritib borilmoqda.

Ayni paytda “Milliy g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanini o‘qitishda ta’limning interaktiv usullari, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni hamda kompyuter va multimedia vositalarini, elektron versiyalarini joriy etish, uni ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, qo‘srimcha adabiyotlar bilan to‘ldirish bo‘yicha ham ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yurtimizda aholining ta’limdan tashqaridagi qatlamlari orasida ma’naviy-mafkuraviy ishlarni olib borish tizimi ham shakllandı.

Muhtaram Prezidentimiz o‘zining ko‘pgina chiqishlarida hozirgi dunyo miqyosida aql-zakovat va fikr musobaqasi ketayotgan shiddatli bir davrda faqat mustaqil fikriga ega bo‘lgan, o‘zining kimligi, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini chuqur anglab yetgan, yon-atrofidagi voqealarga daxldorlik hissi bilan yashaydigan har tomonlama bilimli va barkamol yoshlargina o‘z xalqi va Vatani shuhratini dunyoga yoyishga qodir bo‘lishi haqida doimo ta’kidlaydi. Chindan ham, bugungi davrda mafkuraviy immunitetning asosiy mezonini bo‘lgan yuksak tafakkur va ma’naviyat har qanday yutuq va g‘alabaning asosiy sharti va garoviga aylanib bormoqda. Negaki, ma’naviyatsiz odam fikran boshqalarga qaram, tobe bo‘ladi. U faqat topshiriqni bajarishdan boshqa narsaga yaramaydi. Hozirgi yuqori zamonaviy texnologiyalar zamonida esa berilgan topshiriqlarni texnika vositalari ham qoyilmaqom qilib bajarishi mumkin.

Shuning uchun ham ma’naviyat yoshlarning parvozini ta’minlaydigan, ularning kuchiga kuch, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘sadigan qanot ekanini unutmagan holda, yoshlar o‘rtasida faol ma’naviy-ma’rifiy ish olib borish, ularning Vatanga muhabbat, har bir ishga sadoqat ruhida tarbiya toptirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Ma’naviyat avvalo o‘z xalqi va Vataniga muhabbat – vatanparvarlik tuyg‘usidan boshlanadi. Bunday tuyg‘udan mahrum odam hech qachon ma’naviyatli bo‘lolmaydi. Muqaddas hadislarda “Vatanni sevmoq – iymondandir” deb bejiz aytilmagan.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy mafkuraning ta’limiy-tarbiyaviy omillari

Ma'lumki, iymon-e'tiqod inson ma'naviyatini shakllantiradigan asosiy mezonlardan biri. Chunki biron narsaga ishonmasa, mehr qo'ymasa, insonning qalbi va ongida yuksak tuyg'u va tushunchalar tizimi vujudga kelib, kamolga yetmaydi. Modomiki, iymon-e'tiqod insoniyat ma'naviyatining o'zagi va o'z navbatida iymonli-e'tiqodli bo'lishning sharti Vatanni sevish bilan bog'liq ekan, hech shubhasiz, vatanparvarlik eng yuksak fazilatlardan biridir.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, sayqallanib kelgan milliy g'oyamizning tub negizlari bo'lgan hayotiy misollarga e'tibor beraylik. Yurtimiz zaminida yashab o'tgan jasur ayol – To'maris qudratli dushmanning hiyla-nayranglari oldida o'zini yo'qotib qo'ymasdan, adolat uchun jangga kirgan. Shu tariqa lashkarining soni jihatdan o'zidan ancha ustun bo'lgan yovning ustidan g'alaba qozondi. Qo'lida na qurol, yonida na lashkari bo'lgan oddiy cho'pon Shiroqning jasoratini olaylik. U o'zining yov qo'lida o'lishini oldindan bilgan bo'lsa-da, muqaddas Vatan tuprog'i dushman oyoqlari ostida toptalmasligi uchun ongli ravishda jasoratga qo'l uradi – yov qo'shinini kimsasiz dashti biyobonga olib borib, uni o'limga mahkum etadi, o'zi ham halok bo'ladi. Lekin ona yurtini bosqinchilardan saqlab qoladi. Kelgusi avlodlar uchun ma'naviy ibrat bo'ladigan tengsiz jasorat namunasini meros qilib qoldiradi. Buyuk vatandoshimiz – Jaloliddin Manguberdi dunyoning teng yarmini o'ziga bo'ysundirgan, askarlari bilan yer yuzini mo'ri malaxdek bosgan mo'g'ul qo'shiniga qarshi 12 yil davomida muttasil kurash olib borgan. Holbuki, Jaloliddin Manguberdining imkoniyatlari Chingizzxonnikiga nisbatan juda cheklangan bo'lgan – uning ixtiyorida oz sonli lashkar va qurol-yarog' bo'lgan. Shunga qaramay, u qudratli yovga qarshi mardona jang qilgan. Sohibqiron bobomiz Amir Temurning mo'g'ullar istilosini ostida yotgan Turon zaminni ozod qilib, bu yerda ulkan sultanat barpo etganini esga olaylik. Albatta, ulug' ajdodimizga xalqni dushmaniga qarshi oyoqqa turg'izish, uning haq-huquqini ta'minlash oson bo'lman. Buning uchun bochqinchilarga qarshi tinimsiz kurash olib borish, o'z hayotini jiddiy xavf-xatarlarga qo'yishga to'g'ri kelgan.

Vatan tuyg'usi, Vatan hissi shu qadar muqaddas bo'lgani uchun bizning milliy g'oyamizning asosiy tushunchalaridan biri Vatan taraqqiyoti deb nomlanadi. Bu esa vatanparvarlik hech qachon eskirmasligi va kun tartibidan tushmasligi, hamma zamonlarda ham dolzarbdir.

Milliy g'oyamizning asosida turadigan yana bir muhim qadriyatlardan biri – bu ajdodlar ruhiga sadoqat, vorisiylik tuyg'usidir. Negaki, o'z ajdodlarining kimligini yaxshi bilmaydigan, ularning merosidan bexabar bo'lgan odam ruhan g'arib bo'ladi. Uni xohlagan ko'yga solish, yo'lidan og'dirish, yomon yo'llarga boshlash oson bo'ladi. O'z ota-bobolarining shonli an'analarini yaxshi bilgan, ularning insoniy mohiyatini chuqur tushunib yetgan insonlar esa, boshqalar yetaklaydigan yo'ldan emas, balki ana shu ajdodlarining izidan borish, ularning ishini davom ettirish haqida o'ylaydi, o'z

hayotini ham shu asosga quradi. Milliy g‘oyada aks etigan Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, Xalq farovonligi kabi g‘oyalari albatta, yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanishiga xizmat qilishi shubhasizdir.

O‘zbek xalqining asriy an’analari, jumladan, tarbiya sohasidagi an’analari ajdodlarimizning tabarruk dini bilan bog‘liq. Yoshi kattalarga salom berish, ularni hurmat qilish, yoshi kichiklar va kuchsizlarni avaylash, ilm olish va kasb o‘rganishga da’vat, halol mehnat qilishga chaqirish, qo‘snilar bilan xushmuomala bo‘lish kabi an’analar o‘zbeklar oilalarida, ularning dinga munosabatlaridan qat’iy nazar, yoshlarga singdirib kelingan. Afsuski, ilg‘or qarashli, o‘qimishli, odobli va kelajagini bugundan, yoshlik chog‘idan qurayotgan yoshlar bilan bir qatorda, ishyoqmas, qo‘pol, takasaltang, savodsiz va gumroh o‘spirin yoshlar ham uchrab turibdi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bunday yoshlar ham dunyoviy, ham diniy savodsiz bo‘lib, ularning tarbiyasiga oilalarida kam e’tibor berilgan, asosan, moddiy ta’minlab qo‘yish bilan cheklanilgan.

Vatanparvarlik ham milliy, ham umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Vatanga bo‘lgan munosabat ma’naviyat darajasiga ko‘tarilib, inson faoliyatiga, maqsad va vazifalariga aylanshi - vatanparvarlikdir. Vatanparvarlikni harbiy soha, kasb-kor bilan chambarchas bog‘liq tushuncha. Shuning uchun “harbiy vatanparvarlik” tushunchasi muomalaga kiritildi. Vatanga qasamyod sodiq qolish harbiy xizmatdagi yoki uni o‘tayotgan fuqaroga nisbatan qo‘llaniladigan ibora. U ma’lum bir vaqtda, tartibda va shartda bajariladi. Vatanga qasamyodga sodiqlik ana shu harbiy aktning nihoyasi sifatida keladi va uni harbiylar ham, harbiy qasamyod qilgan fuqaro ham bab-barobar bajaradi. Vatanga qasamyod-e’tiqod ramzidir. Uni keltirgan fuqaro yoki harbiy xizmatchi talab etadigan normalarga qat’iy rioya etishni ma’suliyat deb hisoblaydi. Vatanga qasamyodni buzish xoinlik, sotqinlik hisoblanadi. Qasam shaxsni mudom sergak yashashga undaydi, vatan taqdiriga taalluqli xabar va ma’lumotlarni begona, yet, yov tomonga tarqatmaslikni burch sifatida unga yuklaydi. Bu burchni buzmaslik uchun Vatan, ota-onaoila, butun xalqi nomidan qasam ichadi va shu tariqa, o‘z qalbidagi vatanparvarlikni ifoda etadi. Qasam ichish va unga amal qilish, uni buzmaslik vatanparvarlikning oliy ko‘rinishidir. Vatanga muhabbat hayotda har qaysi insonning ezgu orzu-umidlari bo‘ladi. Ayniqsa, ozod va obod Vatanda o‘sib-ulg‘ayyotgan, qalbi pok his-tuyg‘ular bilan to‘lgan yoshlarning orzulari bir olam. Ana shu orzularning eng ulug‘i ota-onaga, el-yurtiga Prezidentiga beminnat xizmat qilish, ularning oldidagi farzandlik burchini sidqidildan ado etishdir. Bu orzuga erishish uchun inson bolalikdan boshlab o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yib, zarur bilim, ko‘nikma va hunarlarni egallashi, ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan sog‘lom va baquvvat bo‘lishi lozim.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy mafkuraning ta’limiy-tarbiyaviy omillari

tarbiyalashga yo‘naltirilgan faoliyatidir. Uning natijasida yoshlар O‘zbekiston degan nomni eshitganda, Vatan bayrog‘i baland ko‘tarilganda quvonch, iftixor tuyg‘usini tuyishi lozim. Vatanga bo‘lgan muhabbat hissi ularning qalbida jo‘sh urishi kerak. Ona-Vatanimizni ko‘z qorachig‘idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish, o‘sib kelayotgan avlodning hayotiy va professional ko‘nikmalarni ilm-ma’rifat asosida yuksaltirish har bir ustoz-murabbiyning burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // “Xalq so‘zi”, 2017-yil 20-sentyabr.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik Ozbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. B. 32.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’anaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. – 70 b.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1998. – 426 b.
5. Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. – Toshkent: “O‘zbekiston”, NMIU, 2013. – 297-298 b.